

Murvatli o'yinchoq

Murvatli yoki mexanik o'yinchoqlar rezinkalar va prujinalar yordamida bevosita harakatlanadi. Bunday o'yinchoqlarning tarixi insoniyat harakatlanuvchi mexanizmlarni yaratishga uringan davrlardan boshlanadi. O'yinchoqni harakatlantirish uchun ustalar dastakchalar va tishli g'ildirakchalardan foydalanishgan. Shu tariqa qadimgi Yunonistonda g'ayrioddiy qo'g'irchoqlar ishtirokida teatr ochilgan. Ovoz chiqaradigan va harakatlanadigan bu ijrochi hayvonlarni iste'dodli ustalar yasagan. Dastlabki mexanik qurilmalardan biri parvoz qiladigan kaptar bo'lgan. Bu qush to'liq yog'ochdan yasalgan va bug' yordamida sim bo'ylab harakatlangan.

Keyinroq soat mexanizimli o'yinchoqlar: musiqali g'aladon, sayraydigan qushli qafaslar, raqsga tushadigan shaklchalar, murvatli poyezd va paroxodlar paydo bo'lgan.





Dengiz qisqichbaqasi

